

XALQARO TADQIQOTLAR TALABIGA MUVOFIQ ONA TILI DARSLARINI YANGI DARSLIKLARDA O`QITISHNING USUL VA YO`LLARI

Nafisaxon Ismadiyoro

Andijon davlat pedagogika instituti

Ma`lumki, xalq ta`limini rivojlantirishga mo`ljallangan Milliy o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “2022-2026-yillarda xalq ta`limini rivojlantirish bo`yicha milliy dasturni tasdiqlash to`g`risida”⁷gi 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoniga muvofiq tasdiqlandi. Milliy dasturda nazarda tutilgan o`qitish mazmuni orqali ko`plab fanlar o`qitilishi va darsliklar o`zgardi. Jumladan, ona tili ham. Ona tilida grammatikadan voz kechilmadi. Grammatikaga esa audiolingual yondashildi. Shu o`rinda audiolingual metod haqida ma`lumot berish o`rinlidir. Ushbu metod dialog yoki matnni o`qish yoki u bilan bog`liq mashqlarni bajarish orqali tilni o`rgatishdan iborat. Tilni o`rganish usuliga ko`ra, yangi tilda odatlar shakllanmaguncha va nutq o`z-o`zidan paydo bo`lgunga qadar uning grammatikasini bilish va uning qoidalarini turli xil topshiriqlar orqali mashq qilishdan iboratdir. Til o`qitishda kommunikativ yondashuv muhim bo`lib, dasturda bunga katta e`tibor qaratilgan. Kommunikativ yondashuvning natijasi grammatika va audiolingual yondashuv kesishgan nuqtada yuzaga chiqadi. Bugungi yangicha til o`qitish tizimida kommunikativ yondashuv grammatik kompetensiyadan ko`ra muhim ahamiyatga ega. Bunda til o`qitishdan maqsad o`zaro muloqotni shakllantirishdan iborat bo`ladi. Til ta`limining maqsadi ham muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

2022-2023-o`quv yili uchun yangilangan darsliklarda grammatika va amaliy mavzular holatini o`rganib chiqish maqsadga muvofiq bo`ladi. 10-sinf darsligi aynan 50% grammatika, 50% nutqiy ko`nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavzular keltirilgan. Grammatikaviy na`zariy ma`lumotlar odatdagidek chiziqli emas, balki spiralsimon holatda joylashtirilgan. Nutqiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi mavzular aynan yoshga mos, adabiyot fani bilan integratsiyalangan holda keltirilgan. Lingvistik mavzular uslubiyat-frazeologiya-leksikologiya-morfologiya-orfografiya-terminologiya-orfografiya-sintaksis-leksikologiya-morfemika-dialektologiya-morfologiya-orfografiya-punktuatsiya-uslubiyat ketma-ketligida joylashtirilgan. Bu holat aksariyat ona tili o`qituvchilarida

⁷ 2022-2026-yillarda xalq ta`limini rivojlantirish bo`yicha Milliy dastur (O`zR Prezidentining 11.05.2022 y. PF-134-son Farmoniga 1-ilova, 2-ilova). Lex.uz



norozilik kayfiyatini ham keltirib chiqardi. Bunga sabab azaliy davrdan beri til ta'limida qoida yodlatish konsepsiyasi ustuvor edi, unga biz ham ko'nikkan edik, ammo shuni unutmaslik kerakki, biz kelajakda o'quvchilarni tilshunoslar qilib emas, balki hayotning bir bo'lagi, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashimiz kerak. 10-sinf ona tili darsligidan o'rin olgan "Muhabbat o'zi nima?", "Jamiyatning bir bo'lagiman", "Huquqdan burchgacha", "Men va boshqalar", "Ruhiy tarbiya", "Tilim – boyligim", "Fan va texnologiyalar", "Boy bo'lsam...", "Kino sanoati", "Tabiat va inson" kabi mavzularni mushohada qilish o'quvchilar dunyoqarashini oshiradi, nutqiy kompetensiya talabi bajarilib, kommunikativlik shakllanadi, shuningdek, o'quvchilar mustaqil fikrlab, uni og'zaki bayon eta oladi, fikrini ham himoya qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

7-sinf ona tili darsligida morfologiya (olmosh, sifat, fe'l, yordamchi so'zlar, ot)-sintaksis-leksikologiya (shakldoshlik va ko'p ma'nolilik)-punktuatsiya-morfologiya-punktuatsiya-uslubiyat kabi ketma-ketlikdagi grammatik mavzular bilan bir qatorda "Ijtimoiy tarmoqlar", "Zamonamiz qahramonlari", "Turon yo'lbarzlari", "Qutb yulduzi", "C vitamini", "Kurash- milliy sport turi", "Kelajak kasblari", "Veterinar", "Maqsadli xarajatlar", "Bobomning pensiyasi", "Fizika hayotni yengillashtiradi", "Elektromobil", "Tutilmay gapiraman", "Yozuvchi bo'lish osonmi?", "Ochiq osmon ostidagi muzey", "Temiryo'llar", "Boburnoma"- memuar asar", "Sharq taronalari"-xalqaro musiqa festivali", "Oliy Majlis", "Mualliflik huquqi" singari hayotiy faoliyat- ko'nikmalarga tayyorlovchi matnlar ham keltirilgan.

6-sinf ona tili darsligida ham kattagina o'zgarish bor. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva muallifligida yaratilib 2017-yilda nashr qilingan 6-sinflar uchun mo'ljallangan "Ona tili" darsligida morfologiyani tilshunoslar bilim darajasiga muvofiq mayda ma'lumotlariga qadar keltirilganligini aytish joiz. Ushbu darslikda o'qish savodxoligini oshirishga xizmat qiluvchi matnlar berilmagan bo'lsa-da, grammatika bo'yicha mukammal darslik sanaladi. Ammo biz tilshunoslarni emas, balki o'quvchi shaxsini tarbiyalashimiz kerak bo'ladi. I. Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun, N. Hakimova, M. Siddiqovlar tomonidan tuzilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun mo'ljallangan darslikda o'quvchi hayoti davomida foydalanadigan nutiy, kommunikativ kompetensiyalar talabini bajarishga xizmat qiluvchi grammatik mavzular keltirilgan, ya'ni morfemika (so'zning tarkibiy qismi)- uslubiyat (tarjimayi hol), morfologiya (ot, sifat, fe'l)-leksikologiya (o'z, ma'no va ko'chma ma'no)-morfologiya (bog'lovchi, yuklama), sintaksis (ega, kesim)-leksikologiya (atamalar)-uslubiyat (badiiy uslub)-paremiologiya (tasviriy ifoda), morfologiya (undov so'zlar)-morfemika-orfografiya (qo'shib yozish)-uslubiyat (rasmiy uslub)-morfologiya (sifat, ot)-sintaksis (gap



bo`laklari), morfologiya (son, fe`l)-sintaksis (qo`shma gaplar)-matn turlari-morfologiya (ravish, taqlid so`zlar, fe`l) kabi keltirilgan. Bu mavzularni aralashtirishdek ko`rinishi mumkin, lekin unday emas, bu kabi joylashtirish matn bilan ishlash qismi bilan birga muvofiqlikni kasb etadi. “Til – muloqot vositasi”, “Qisqacha tarjimayi holim”, “Shifoxona”, “Global isish”, “Qayta ishlanadigan chiqindilar”, “Ko`z nurini asraylik”, “Jigar – eng mehnatkash a`zo”, “Dehqon yurti boqadi”, “Kompyuter grafikasi”, “Teleboshlovchi bo`lib qolsam”, “Import yoki eksport”, “Soliqlarni to`lab borasizmi?”, “Raqamlashgan dunyo”, “Mendeleyev elementlari”, “Yong`in xavfsizligi qoidalari”, “Hadislar hikmati”, “Sayyohlarga gidlik qilsam-chi?”, “Peshtoqdagi bitiklar”, “Minorayi kalon”, “Buyuk ipak yo`li”, “Miniatyura – mo`jaz surat”, “Oqsaroyga bitilgan hikmat”, “Konstitutsiya – bosh qomusimiz”, “Davlatni kim boshqaradi?”, “O`z deputatingizni bilasizmi?” singari xilma-xil amaliy xarakterdagi mavzular o`quvchilarni hayotga tayyorlaydi.

Shu o`rinda -lar qo`shimchasining ma`no uslubiyatlari haqida ham 10-sinf, ham 7-sinf darsligida keng ma`lumotlar berilganini ta`kidlash mumkin. Bu spiralsimon usulning ko`rinishidir, ya`ni o`quvchi ma`lumotlarni takrorlab o`qib, amalda qo`llashi orqali unutib qo`ymaydi. Bu xususiyat avvalgi darsliklarda mutlaqo mavjud emas edi.

Yangi darsliklarning yana bir umumiy xususiyati ularda grammatik mashqlarning o`rniga o`qish savodxonligini baholashga xizmat qiluvchi topshiriqlarning keltirilganligidir. Avvalgi darsliklarda avval qoida berilib, grammatikaviy savol berilardi, buni kimdir shunchaki talabni bajarmaygina ko`chirib berardi, kimdir o`sha o`quvchidan ko`chirar edi. Endi bunday emas, bolalikdan o`qib tushunib, mulohaza qilishga o`rgangan o`quvchilar PISA tadqiqotida o`z ko`nikmalariga tayangan holda yuqori ko`rsatkichlarni egallashi mumkin bo`ladi. Quyida 7-sinf darsligida berilgan topshiriq bilan tanishamiz. Bu yuqoridagi fikrimizning dalili bo`ladi. Ushbu darslikda “Oliy Majlis” bobida 3 ta e`lon keltirilgan.

1- e`lon⁸

E`LON

Toshkent shahrining 235-umumta`lim maktabi “Ta`tilda 5 tashabbus” onlayn tanlovlari doirasida “Ijodkor bolalar” rasmlar tanlovini e`lon qiladi.

“Ijodkor bolalar” rasmlar tanlovi bo`yicha ishtirokchilarning ijodiy ishlari joriy yilning 6-16-iyul kunlari “Telegram” orqali qabul qilinadi.

⁸ I. Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun, N. Hakimova, M. Siddiqov. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Ona tili. Toshkent:-2022, 185-bet.



O`quvchilar rangtasvir yo`nalishidagi erkin mavzudagi ijodiy ishlarini A3 o`lchamli qog`ozga chizib, so`ng uni qo`lida tutgan holda suratga tushib yuborishi lozim.

Tanlov g`oliblari joriy yilning 20-iyul kuni aniqlanadi va e`lon qilinadi.

2- e`lon

E`LON

Olmaliq shahridagi 19-ixtisoslashtirilgan davlat umumta`lim maktabi "Ta`tilda 5 tashabbus" onlayn tanlovlari doirasida videoroliklar tanlovini e`lon qiladi.

Ishtirokchilarning videoroliklari 10-15-sentyabr kunlari <https://t.me/yoshkitobxonlar2020> telegram manzilida soat 10:00 dan 16:00 ga qadar qabul qilinadi. Videorolik hajmi 20 megabaytdan oshmasligi lozim. Bunda kitobxon oila o`zbek yoki jahon adabiyoti durdonalaridan eng ta`sirli yoki kulgiga boy o`rinlarini sahna ko`rinishi shaklida ijro etishi lozim. Ushbu tanlovda oilaning barcha a`zolari ishtirok etishi kerak. Tanlov g`oliblari joriy yilning 25-sentyabr kuni aniqlanadi va e`lon qilinadi.

3- e`lon

Abituriyentlar diqqatiga!

Qadrlı o`quvchilar! Bugungi pandemiya sharoitida uni yengib o`tish uchun uyda qolish – barchamiz uchun eng to`g`ri yo`l.

Vaqt esa sizni manzilingizga tobora yaqinlashtirmoqda. bir oydan keyin kimdir talaba bo`lishi yoki bo`lmasligi turgan gap. Ixtiyoringizda 1 oydan ortiq vaqt bor.

Biz sizlar uchun sifatli masofaviy darslarni taklif etamiz.

Darslar "audiodars + videodars + test + topshiriq" metodi asosida tashkil qilinadi"

- darslarni malakali o`qituvchilar olib borishadi;
- ma`ruzalar videodarslar shaklida taqdim etiladi;
- testlar internet orqali yechiladi;
- vazifalar doimiy ravishda videoqo`ng`iroqlar orqali nazorat qilinadi;
- o`qituvchi va tinglovchi muntazam aloqada bo`ladi.

Siz o`qituvchiga bevosita savollar berishingiz va xatolar ustida ishlashingiz mumkin.

Murojaat uchun tel.: +998901234567

Matn yuzasidan bir qator topshiriqlar berilganki, ushbu topshiriqlar Xalqaro tadqiqotlarga tayyorlanishda muhim asos bo`lib xizmat qiladi.



Ushbu jadvalda keltirilgan ma`lumotlar yuqorida berilgan e`lonlarning qaysi biriga tegishli ekanini aniqlang⁹.

T/r	E`londan olingan ma`lumotlar	Qaysi e`longa tegishli (e`lon raqamini yozing)
1	Videorolik 21 megabayt bo`lmasligi kerak.	2
2	Uyda ham sifatli ta`lim olish mumkin.	3
3	Tanlov g`oloblari yoz oyida aniqlanadi.	1
4	O`quvchilarning ijod namunalari o`zlari bilan rasmlar rasmga olib yuboriladi.	1
5	Bu tanlovda tasviriy san`atga qiziquvchilar qatnashadi.	1
6	Bu tanlovda 4 bosqichli metod aks etgan.	2

Bundan tashqari jadval ko`rinishida o`quvchilardan e`londagi kamchiliklar haqida so`ralgan. shuningdek, namuna sifatida e`lon matnlarini boyitish uchun bir qancha ma`lumotlar keltirib o`tilgan (e`lonlar dizayniga alohida e`tibor berish, tadbirda qanday cheklovlar borligi haqida ham ma`lumot berish, o`quv kurslarining oylik to`lovini yozish, videoroliklar qanday qurilmada tasvirga olinishi mumkinligi haqida ma`lumot berish, qo`shimcha “Diqqat, diqqat, diqqat” kabi kishi e`tiborini tortuvchi so`zlarni qo`shish, necha yoshdagi ishtirokchilar qatnashishi mumkinligi haqidagi ma`lumotni qo`shish¹⁰) va mushohada qilish uchun o`rtaga masalaning qo`yilishi ham o`quvchilar faolligini oshiradi. Bu ko`rinishdagi topshiriqlarni bajarishda

“Savol bering” usulidan ham foydalanish yaxshi samara beradi, o`quvchilarga matn yuzasidan savollar tuzish topshirig`i berilishi kerak, chunki yaxshi savol berish uchun o`quvchilardan matnni yaxshi tushunish talab etiladi, to`g`ri tuzilgan savolning o`zida yarim javob ham keltiriladi. Savollar oddiy- qachan?, nechta?, qaysi? Savollarga javob bo`luvchi yoki murakkab, o`quvchilarni fikrlashga, muhohada yuritishga xizmat qiluvchi – nima deb o`ylaysiz?, vaziyatlarga qanday baho berasiz?, natija nima bo`ladi degan fikrdasiz? kabi.

“Rollarga bo`lish” metodi: sinfni 3 guruhga bo`lib, 3 o`quvchini e`lon beruvchi, qolgan guruh a`zolari e`lonlarga nomzod sifatida roller beriladi. Nomzodlar o`z

⁹ I. Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun, N. Hakimova, M. Siddiqov. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Ona tili. Toshkent:-2022, 187-bet.

¹⁰ I. Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun, N. Hakimova, M. Siddiqov. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Ona tili. Toshkent:-2022.



qiziqtirgan talab va savollarini e`lon beruvchiga bemaol berishi mumkin. Masalan, g`olibga qanday sovg`a beriladi?, onlayn darsga qatnasholmay qolsa, takroran o`tib beriladimi? kabi. Bunday jarayon o`quvchilarni hayotga tayyorlab, albatta, mustaqil fikrlashga o`rgatadi.

“Siz boshliqsiz” deb nomlangan o`yin tashkil eting. Har bir o`quvchi maktab direktori bo`lsin va o`ziga ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi lavozimiga nomzod izlayotgani haqida e`lon berishini yozing, buni uyga vazifa sifatida bera qoling, ishni kompyuter grafikasida bajarsinlar. Bu orqali 3 ta maqsadga erishishingiz mumkin:

1. O`quvchilar ish hujjatlarini tayyorlashni o`rganadilar.
2. Informatika fani bilan o`zaro bog`liqligi bo`ladi.
3. O`quvchi sizdan nimani istayotgani-yu, o`zingizning yutuq va kamchiliklaringizni vaziyatdan foydalanib bilib olishingiz mumkin.


Har yangi darslarni boshlashdan oldin o`quvchilarni muhitga olib kirish lozim, hayotiy mavzular bilan suhbatlashish, masalan, ijtimoiy, siyosiy vaziyatlar haqida. Bu o`quvchilarning og`zaki nutqini oshirib, tilning kommunikativ vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o`qituvchi berayotgan topshiriqlar bir qator maqsadlarga erishish uchun xizmat qilishi kerak. O`quvchilarda mantiqiy fikrlash, matn bilan ishlash savodxonligi, tushunish, yozish ko`nikmalarini rivojlantirish, jadvallar matn qismlari va yaxlit kitoblardan kerakli ma`lumotlarni topishga o`rgatish, o`quvchilarda bitta matndagina emas, bir necha matnlarni o`qiganda ham zarur ma`lumotlarni tanlash ko`nikmasini shakllantirish, o`quvchilarga berilgan matnning qaysi biri eng ishonchli, aniq va muhim ekanligi borasida yakdil qarorga ke;a olishlari kerakligini uqtirish, o`quvchilarda ma`lumotning kerakli, yangi, to`g`ri va har tomonlama ekanligini aniqlash ko`nikmasini rivojlantirish, o`quvchilarni mulohaza yuritishga o`rgatish, matndan tashqari fikrlab, uni matnga bog`lash ko`nikmasini ham shakllantirish, o`quvchilarda kompyuter bilan ishlash malakasini rivojlantirish kabi bir qator dolzarb maqsadlar o`qish savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, biz o`qituvchilar darsdan tashqari mashg`ulot va to`garaklarda turli mavzularga oid PISA topshiriqlarini tahlil qilib borishimiz kerak va uyga vazifa berayotganimizda elektron, rasmi manbalar, axborot matnlaridan foydalanib bajariladigan sifatli topshiriqlar berib borish o`rinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Sh. M. Mirziyoyev. Maktab ta`limini rivojlantirish masalalari bo`yicha videoselektor yig`ilishi 28.01.22.





2. I. Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun, N. Hakimova, M. Siddiqov. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Ona tili. Toshkent - 2022.

3. Sh. Yusupova. Oliy ta`limda mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi, ma`ruza matn.

4. "PISA" 2009//<https://www.oecd.org/PISA/products/46619755.pdf>

5. Matkarimov Akramjon Muxtorovich. "PISA" xalqaro o`quvchilarning savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari. "Ta`lim texnologiyalari" dan

6. Tarjimon Elmurod Tursunov. PISA-2018 O`qish savodxonligi qamrov doirasi, "Ta`lim sifatini baholash bo`yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo`limi", T:.-2021.

